

JAMOAT XAVFSIZLIGINI JANGOVOR TA'MINLASH TIZIMINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI

ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ СИСТЕМЫ БОЕВОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF THE SYSTEM OF COMBAT SUPPORT FOR PUBLIC SECURITY

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

magistratura tinglovchisi

mayor Sobirov Sobirjon Sirojiddin o'g'li

Annotatsiya: Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ya'ni jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyati yo'nalishidagi olib boriladigan barcha ishlar "Xalq manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida tashkil etildi va mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro maqsadli hamkorligi yo'lga qo'yildi.

Kalit so'zlar: jamoat xavfsizligi, jamoat tartibini saqlash, ommaviy tadbirlar, harbiy strategiya, harbiy xizmatchi, milliy gvardiya

Аннотация: В рамках масштабных реформ, осуществляемых в нашей стране, особое внимание уделяется обеспечению мирной и спокойной жизни населения, а также формированию в нашем обществе культуры законопослушания и общественной безопасности. Иными словами, вся деятельность в сфере обеспечения общественной безопасности организована на основе принципа «Служить интересам народа», внедрены совершенно новые механизмы и порядки, а также налажено целенаправленное сотрудничество государственных органов с общественными структурами.

Ключевые слова: общественная безопасность, поддержание общественного порядка, массовые мероприятия, военная стратегия, военнослужащий, Национальная гвардия

Annotation: Within the framework of large-scale reforms being implemented in our country, special attention is given to ensuring a peaceful and tranquil life for the population, as well as fostering a culture of law-abidance and public security in our society. In other words, all activities carried out in the sphere of ensuring public safety have been organized on the principle of “Serving the interests of the people,” while entirely new mechanisms and procedures have been introduced, and purposeful cooperation between state bodies and public institutions has been established.

Keywords: public security, maintenance of public order, mass events, military strategy, serviceman, National Guard

Bugungi globallashuv va tezkor axborot asrida jamoat xavfsizligini ta'minlash davlatning eng muhim ustuvor vazifalaridan biridir. Jinoyatchilikning yangi shakllari, terrorizm, kiberxavfsizlikka tahdidlar, ommaviy tartibsizliklar xavfsizlik tizimiga yangicha yondashuvni talab etmoqda. Shu sababli jamoat xavfsizligini jangovor ta'minlash tizimi nazariy jihatdan ilmiy asosga, amaliy jihatdan esa samarali mexanizmlarga ega bo'lishi zarur.

Jamoat xavfsizligini jangovor ta'minlash tizimining nazariy asoslari.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi bir necha nazariyalarga tayanadi:

Xavfsizlik nazariyasi – insonni, jamiyatni va davlatni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish konsepsiyasi.

Huquqiy asoslar – Konstitutsiya, milliy qonunchilik hamda xalqaro huquq normalari xavfsizlikning kafolati hisoblanadi.

Ijtimoiy boshqaruv nazariyasi – davlat organlari, jamoat tashkilotlari va fuqarolarning hamkorligi orqali barqarorlikni ta'minlash.

Harbiy strategiya va taktikalar – jinoyatchilik, terrorizm, favqulodda vaziyatlarda qo'llaniladigan jangovar choralar majmuasi bo'lib hizmat qiladi.

Axborot xavfsizligi – jamiyatni, xalqni va davlatni zararli axborot oqimlari va kiberxavflardan himoyalash nazariyasidir.

Xavfsizlik tushunchasini ilmiy jihatdan izohlash imkonini beradi. Tahdidlarni oldindan prognoz qilishga sharoit yaratadi. Harbiy, huquqni muhofaza qiluvchi va maxsus xizmatlar faoliyatida yagona konseptual yondashuvni belgilaydi. Davlatning milliy xavfsizlik siyosatini shakllantirishda haqiqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Fuqarolarning hayoti, huquqi va mulkini himoya qilishni ta'minlaydi. Ommaviy tartibsizliklar, jinoyatchilik, terrorizm va ekstremizmga qarshi samarali kurash imkonini beradi. Favqulodda vaziyatlarda aholiga yordam ko'rsatish va ularning xavfsizligini ta'minlaydi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, milliy gvardiya va armiya ning jangovor tayyorgarligini oshiradi. Aholi o'rtasida xavfsizlik madaniyatini shakllantiradi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida (videokuzatuv, kiberxavfsizlik, sun'iy intellekt, dronlar) xavfsizlikni kuchaytiradi.

Mamlakatimizda jamoat tartibini jangovor ta'minlash tizimini yanada rivojlantirish hamda ushbu sohadagi davlat siyosatining istiqbolli yo'nalishlarini belgilash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son (2021 yil 29 noyabr) farmoni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining jamoat xavfsizligi konsepsiyasi hamda 2022-2025 yillarda jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyalarga asosan, jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyati quyidagi asosiy tamoyillarga tayangan holda amalga oshiriladi:

qonuniylik;

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish hamda ularni hurmat qilish;

ochiqlik va shaffoflik;

jamoat xavfsizligiga tajovuz qiluvchi tahdidlarning oldini olish va bartaraf etish tadbirlarining ustuvorligi;

jamoat xavfsizligini ta'minlashda barcha vakolatli tuzilmalarning harakatlari izchilligi va birdamligi. [2].

- 2022-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi;

- 2022-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” va boshqalar.

Jamoat havfsizligini jangovor taminlash sohasida axborot kommunikatsiya texnologiyalarning joriy etila boshlangani fuqarolarning ma’muriy huquqbuzarliklar masalalari bo‘yicha ortiqcha say harakatlarini oldini olish, soha xodimlarining vaqtini tejash, o‘z vaqtida, voqea joyida va tezkorlik bilan jazo muqarrarligini ta’minlash, kuch va vositalarni tezkor boshqarish hamda fuqarolarning murojaatlariga tezda munosabat bildirish imkonini bermoqda.

Xulosa. Tahlillardan kelib chiqib, bugungi kunda jamoat xavfsizligini jangovor ta’minlashning samarasini oshirish bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarni yanada takomillashtirish maqsadida, quyidagi takliflarni amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq, deb o‘ylayman:

— jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash sohasidagi hujjatlarni qog‘oz shakldan elektron shaklga o‘tkazish;

— jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha hamkorlikdagi kuch bo‘linmalar bilan o‘quv mashg‘ulotlar olib borish;

— jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlovchi va unda ishtirok etuvchi subektlarning o‘rtasida yagona elektron axborot almashish tizimini joriy etish;

— bozorlar va yirik savdo-ko‘ngilochar majmualarida jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash barcha subyektlarni ish samaradorligini oshirish;

— jamoat xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etuvchi subektlarning vazifalari, huquq va majburiyatlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish.

Jamoat xavfsizligini jangovor ta’minlash tizimi davlat barqarorligi, fuqarolarning tinch va osoyishta hayoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. U nafaqat nazariy asosga, balki real hayotda qo‘llaniladigan amaliy mexanizmlarga ega bo‘lishi zarur. Shu bois davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi kuchlar va butun jamiyat ushbu tizimni rivojlantirishda faol ishtirok etishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепсиясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-27-сон фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.12.2021 й., 06/21/27/1116-сон
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 июнидаги “Тошкент шаҳрида жамоат тартибини таъминлаш, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3786-сон қарори <https://lex.uz/docs/3786903>;
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 2 февralидаги Тошкент шаҳар жамоат транспорти тизимини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-111-сон қарори <https://lex.uz/docs/5847479>
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 2 апрелидаги “Ички ишлар органларининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасидаги фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-5050-сон қарори <https://lex.uz/ru/docs/5353841>
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6196-сон фармони <https://lex.uz/docs/5344118>
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 ноябридаги “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепсиясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-27-сон Фармони <https://lex.uz/uz/docs/5749291>